| INNOVATSION LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....                                                          | 1786 |
| Rafiyeva Zarina Husanovna                                                                                                                          |      |
| ВЛИЯНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ НА ЗАНЯТОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ .....                                                     | 1790 |
| Акбарова Малика Ильхомовна                                                                                                                         |      |





|                                                                                                                                                                      |      |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| INVESTITSION FAOLLIK VA JOZIBADORLIK KO'RSATKICHLARINI TAHLIL QILISH<br>YO'NALISHLARI .....                                                                          | 1798 |
| O'razaliyev Javlonbek O'rinboyevich                                                                                                                                  |      |
| ENVIRONMENTAL FACTORS CONTRIBUTING TO THE INCREASE IN CHRONIC RHEUMATIC<br>DISEASES IN CHILDREN .....                                                                | 1802 |
| Kuldashv Sardor Furkatovich, Alpykarov Bakhodir Khudayberdiyevich, Umarova Khadicha Abdullayevna                                                                     |      |
| ФОРМИРОВАНИЕ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ ТОВАРНОГО БРЕНДА В ЦИФРОВОЙ<br>СРЕДЕ НА ОСНОВЕ НЕЙРОМАРКЕТИНГОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ (НА ПРИМЕРЕ QAND).....                          | 1807 |
| Юлдашев Жамшид Аббарович, Эрмуратова Камила Мисир кизи                                                                                                               |      |
| ISHLAB CHIQRARISH XARAJATLARINING BOZOR MUNOSOBATLARI SHAROITIDA O'ZIGA XOS<br>XUSUSIYATLARINING TAHLILI .....                                                       | 1816 |
| Turebekov Anvarbek Adilbekovich                                                                                                                                      |      |
| SHAHAR VA TUMANLARDI INKLYUZIV RIVOJLANISH MEKANIZMLARINI<br>TAKOMILLASHTIRISH.....                                                                                  | 1822 |
| Xamroqulov M.J.                                                                                                                                                      |      |
| O'ZBEKISTONDA VA G'ARB MAMLAKATLARIDA XAYRIYA YONDASHUVLARI: IJTIMOII, IQTISODII<br>VA SHAHSII OMILLARNING QIYOSII NAZARII VA EMPIRIK TAHLILI.....                   | 1826 |
| Azimjon Musamuxamedov                                                                                                                                                |      |
| AHOLINI IJTIMOII QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIIAVII RESURLARDAN SAMARALI<br>FOYDALANISH YO'LLARI .....                                                                   | 1832 |
| Zoya Xalekeyeva, Jamgirbaeva Nilufar Dauilbay qizi                                                                                                                   |      |
| ЭКОНОМИКА ТРУДА И УПРАВЛЕНИЕ ПЕРСОНАЛОМ HR В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ<br>ЗАВЕДЕНИЯХ .....                                                                                      | 1837 |
| Амирджанова Ситора Суннат кизи, Шаюсупова Наргиза Тургуновна,<br>Исомухаммедов Исроил Исомухаммад ўғли, Маматкулов Ҳумоюн Бобир ўғли                                 |      |
| INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING ASOSII MEKANIZMLARI VA USULLARI .....                                                                                              | 1843 |
| Jumaqulov Ozodbek Shuhrat o'g'li                                                                                                                                     |      |
| ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН<br>НА ОСНОВЕ ПРИМЕНЕНИЯ «ФИНСКОГО ЧУДА»: АНАЛИЗ БАРЬЕРОВ ВНЕДРЕНИЯ И ПУТИ<br>ИХ УСТРАНЕНИЯ..... | 1847 |
| Холмуратов Джахонгир Салимбек угли                                                                                                                                   |      |
| O'ZBEKISTONDA YALPI OMILLAR SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI IQTISODII VA<br>INSTITUTIONAL OMILLAR TAHLILI .....                                                       | 1854 |
| Djalilov Dostonbek Abduazizovich                                                                                                                                     |      |
| СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИНАНСИРОВАНИЯ ЖИЛИЩНОГО СТРОИТЕЛЬСТВА В РЕСПУБЛИКЕ<br>УЗБЕКИСТАН .....                                                                            | 1859 |
| Жаксымуратов Казбек Раджович, Кощанова Сахибжамал Бахитбаевна                                                                                                        |      |
| YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ SIYOSATINING TRANSFORMATSIYASI:<br>XORIJ TAJRIBASI.....                                                                          | 1865 |
| Roza Xudayberganova                                                                                                                                                  |      |
| RAQAMLI BANK XIZMATLARI ASOSIDA YASHIL MOLIIAVII MAHSULOTLARNI KENGAYTIRISH<br>ISTIQBOLLARI .....                                                                    | 1871 |
| Kuvotova Dilnora Kaxramonovna                                                                                                                                        |      |
| КРЕАТИВНЫЕ ИНДУСТРИИ КАК ДРАЙВЕР ИННОВАЦИОННОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ .....                                                                                                | 1876 |
| Бекимбетова Гулнора Маратовна                                                                                                                                        |      |
| MINTAQA IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA INVESTITSION JARAYONLARNING TA'SIRI<br>DINAMIKASINI IQTISODII-STATISTIK TAHLILI .....                                            | 1882 |
| Mahmudov Tursunpo'lat Davronovich                                                                                                                                    |      |
| QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA SEDANA (NIGELLA SATIVA L.)<br>YETISHTIRISHNING IQTISODII SAMARADORLIGI .....                                                | 1889 |
| Umurzakova Nargiza Maksetbay qizi                                                                                                                                    |      |
| O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INFLYATSIYANI JILOVLASH VA BARQAROR NARX<br>SHAKLLANTIRISH MEKANIZIMLARI .....                                                            | 1894 |
| Abdullayev Habibullo, Burhonova Gulnoza Kadam qizi                                                                                                                   |      |



|                                                                                                                     |      |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA IJRO INTIZOMINI MUSTAHKAMLASHNING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI .....                       | 1899 |
| E.U. Azizov, X.D. Sarabekov                                                                                         |      |
| INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA TURIZM SALOHİYATIDAN FOYDALANISH JARAYONLARINI TAKKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI ..... | 1905 |
| Sharipov Baxtiyor Mixlibayevich, Isayeva Nargiza Xamidovna                                                          |      |
| BANK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI.....                                                               | 1910 |
| Kasimov Baxtiyor Usmanovich                                                                                         |      |
| XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH TAHLILI.....        | 1914 |
| Matniyazova Iqboloy Baxramovna                                                                                      |      |
| BUZILGAN YERLARNI REKULTIVASIYA QILISH.....                                                                         | 1920 |
| G‘ayrat Aminovich Muxamedov                                                                                         |      |



## BUZILGAN YERLARNI REKULTIVASIYA QILISH



### G'ayrat Aminovich Muxamedov

Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi  
Davlat ekologik ekspertizasi markazi Bosh direktori

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada konchilik va sanoat faoliyati natijasida buzilgan yerlarni qayta tiklashning (rekultivasiya) texnik va biologik bosqichlari ilmiy-amaliy jihatdan yoritilgan, yerlarni qayta tiklash jarayonida ekologik xavfsizlik, sanitariya-gigiena talablari va zamonaviy kam zararli konchilik texnologiyalarini qo'llashning ahamiyati asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** buzilgan yerlar, rekultivasiya, texnik bosqich, biologik bosqich, agrotexnik tadbirlar, fitomeliyasiya, tuproq unumdorligi, eroziyaga qarshi kurash, sanoat chiqindixonalari, ekologik xavfsizlik, biogeosenoz, meliorasiya, sho'rlanish, zaharli jinslar, konchilik faoliyati oqibatlari.

**Abstract.** This article presents a scientific and practical overview of the technical and biological stages of land restoration (reclamation) of areas disturbed as a result of mining and industrial activities. The importance of ensuring environmental safety, compliance with sanitary and hygienic requirements, and the application of modern low-impact mining technologies in the land restoration process is substantiated.

**Key words:** disturbed lands, reclamation, technical stage, biological stage, agrotechnical measures, phytomelioration, soil fertility, erosion control, industrial waste dumps, environmental safety, biogeocenosis, land reclamation (melioration), salinization, toxic rocks, consequences of mining activities.

**Аннотация.** В данной статье с научно-практической точки зрения освещены технические и биологические этапы восстановления (рекультивации) земель, нарушенных в результате горнодобывающей и промышленной деятельности. Обоснована значимость соблюдения требований экологической безопасности и санитарно-гигиенических норм, а также применения современных маловредных горнодобывающих технологий в процессе восстановления земель.

**Ключевые слова:** нарушенные земли, рекультивация, технический этап, биологический этап, агротехнические мероприятия, фитомелиорация, плодородие почвы, борьба с эрозией, промышленные отвалы, экологическая безопасность, биогеноценоз, мелиорация, засоление, токсичные породы, последствия горнодобывающей деятельности.

### KIRISH

Sanoatlashuv, xususan tog'-kon va qurilish faoliyatining kengayishi natijasida yer resurslarining buzilishi va ularning xo'jalik aylanishidan chiqib ketishi bugungi kunda ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan dolzarb muammolardan biriga aylangan. Buzilgan yerlar tabiiy landshaftlarning izdan chiqishiga, tuproq unumdorligining pasayishiga, biologik xilma-xillikning qisqarishiga hamda hududlarning iqtisodiy salohiyatidan to'liq foydalanish imkoniyatlarining cheklanishiga olib keladi. Shu bois yer resurslarini muhofaza qilish, buzilgan yerlarni qayta tiklash va ularni keyingi maqsadli foydalanishga tayyorlash masalalari barqaror rivojlanish siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda.



Rekultivasiya buzilgan yerlarni ekologik, xo'jalik va ijtimoiy jihatdan qayta tiklashga qaratilgan murakkab va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, u texnik va biologik tadbirlar majmuasini o'z ichiga oladi. Ushbu jarayon nafaqat yerlarning ishlab chiqarish yoki rekreasion aylanishga qaytarilishini ta'minlaydi, balki atrof-muhitga salbiy ta'sirlarni kamaytirish, sanitariya-gigiena holatini yaxshilash hamda hududlarda ekologik muvozanatni tiklashga xizmat qiladi. Ayniqsa qishloq xo'jaligi, o'rmonchilik va rekreasion yo'nalishlarda rekultivasiya ishlari yer resurslaridan oqilona foydalanish va ularning uzoq muddatli unumdorligini ta'minlash nuqtayi nazaridan alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston sharoitida tabiiy-iqlim omillari, cho'l va yarim cho'l hududlarining ustunligi, shuningdek konchilik sanoatining rivojlanishi rekultivasiya masalalariga ilmiy asoslangan va hududiy xususiyatlarni inobatga olgan yondashuvni talab etadi. Buzilgan yerlarni tiklash jarayonida texnik rejalashtirish sifati, biologik meliorasiya tadbirlarining to'g'ri tanlanishi hamda iqtisodiy samaradorlikni hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Mazkur maqolada rekultivasiyaning texnik va biologik bosqichlari, ularni amalga oshirish talablari hamda buzilgan yerlarni samarali va xavfsiz tarzda foydalanishga qaytarishning ilmiy-amaliy jihatlari tizimli ravishda yoritiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Buzilgan yerlarni rekultivasiya qilish masalalari ekologiya, yer resurslarini boshqarish va barqaror rivojlanish nazariyalarining tutashgan nuqtasida shakllangan ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu muammo dastlab sanoat inqilobi davrida tog'-kon faoliyati va yirik infratuzilma loyihalari natijasida yerlarning degradatsiyasi kuchayishi bilan bog'liq holda ilmiy muhokama obyekti aylangan. G'arbiy ilmiy maktablarda rekultivasiya tushunchasi yerning nafaqat xo'jalik aylanishiga qaytarilishi, balki ekologik funksiyalarini tiklash zarurati bilan izohlanadi. Xususan, R. Bradshaw va M. Chadwick tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvlarda rekultivasiya jarayoni texnik barqarorlikni ta'minlashdan biologik muvozanatni tiklashgacha bo'lgan izchil bosqichlar sifatida talqin qilinadi. Ularning tadqiqotlarida konchilikdan keyingi hududlarda relefni qayta shakllantirish va o'simlik qoplamini tiklash ekologik tiklanishning asosiy sharti sifatida ko'rsatiladi.

Tuproq unumdorligini tiklash masalalari bo'yicha H. Schinner va hamkorlarining ishlari alohida ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotlarda biologik rekultivasiya jarayonida tuproqning fizik, kimyoviy va biologik xususiyatlarini yaxshilash uzoq muddatli jarayon ekanini ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Mualliflar meliorant ekinlardan foydalanish, organik moddalarning kiritilishi va mikrobiologik faollikni oshirish orqali gumus zaxirasini bosqichma-bosqich tiklash mumkinligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, ular texnik bosqichda yo'l qo'yilgan xatolar biologik rekultivasiya samaradorligini keskin pasaytirishini qayd etadi.

Postsovet makonida buzilgan yerlarni rekultivasiya qilish masalalari ko'proq hududiy rejalashtirish va qishloq xo'jaligi ehtiyojlari bilan bog'liq holda o'rganilgan. A.I. Gorbunov va V.I. Osipov tadqiqotlarida kareerlar, chiqindixonalar va texnogen relef elementlarini tekislash hamda terraslash ishlari eroziya jarayonlarini cheklash va keyingi biologik tiklash uchun qulay sharoit yaratishning muhim omili sifatida ko'rsatiladi. Ushbu ishlarda rejalashtirish sifatiga alohida urg'u berilib, noto'g'ri tekislangan maydonlarda qishloq xo'jaligi samaradorligi keskin pasayishi ilmiy dalillar bilan asoslanadi.

O'zbekiston olimlari tadqiqotlarida rekultivasiya masalalari asosan cho'l va yarim cho'l hududlarining tabiiy-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda yoritilgan. A. Jo'raev va N. Abdullaev ishlarida Qizilqum va unga tutash hududlarda buzilgan yerlarni tiklashda jinslarning biologik yaroqliligini baholash, kam yaroqli va yaroqsiz jinslar bilan ishlashda texnik va kimyoviy himoya qatlamlaridan foydalanish zarurligi ko'rsatib berilgan. Mualliflar rekultivasiya texnologiyalarini tanlashda minimal xarajat bilan maksimal ekologik va xo'jalik samarasiga erishish tamoyilini ilgari suradi.

Biologik meliorasiya va fitomeliorasiya masalalari N.G. Davronova tadqiqotlarida tizimli ravishda tahlil qilingan. Uning ilmiy ishlarida sho'rlangan va qisman zaharlangan tuproqlarda dukkakli va meliorant ekinlarni yetishtirish orqali tuproq strukturasi va ozuqa moddalar balansini yaxshilash imkoniyatlari asoslab beriladi. Davronova rekultivasiya jarayonini faqat texnik tadbirlar bilan cheklash ekologik barqarorlikni ta'minlamasligini, biologik bosqich esa rekultivasiya jarayonining hal qiluvchi qismi ekanini ta'kidlaydi.

Xalqaro tashkilotlar, xususan FAO va UNEP materiallarida rekultivasiya yer resurslarini barqaror boshqarish siyosatining ajralmas elementi sifatida qaraladi. Ushbu manbalarda buzilgan yerlarni tiklash iqtisodiy foyda bilan bir qatorda ijtimoiy va ekologik samaradorlikni ham ta'minlashi lozimligi qayd etiladi. Ayniqsa kelajak avlodlar manfaatlarini hisobga olish va landshaftlarning estetik qiymatini tiklash rekultivasiya jarayonining muhim mezonlari sifatida ko'rsatiladi.

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, buzilgan yerlarni rekultivasiya qilish texnik va biologik bosqichlarning uzviy bog'liqligiga asoslangan kompleks yondashuvni talab etadi. Hududiy xususiyatlarni, tuproq va jinslarning tarkibini hamda iqtisodiy omillarni hisobga olgan holda amalga oshirilgan rekultivasiya ishlari yer resurslaridan samarali foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.



## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ma'lumotlar normativ-huquqiy hujjatlar, milliy va xalqaro hisobotlar, ilmiy monografiyalar hamda soha bo'yicha chop etilgan maqolalar asosida yig'ildi. Tahlil jarayonida taqqoslash, tizimli yondashuv, mantiqiy umumlashtirish va ilmiy manbalarni tanqidiy tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Olingan ma'lumotlar rekultivatsiya bosqichlarining samaradorligini baholash uchun solishtirma va tavsifiy tahlil asosida qayta ishlanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Buzilgan yerlarni keyinchalik maqsadli foydalanishga tayyorlashni o'z ichiga olgan birinchi — texnik bosqichda quyidagi ishlar amalga oshiriladi: maydonni rejalashtirish, nishabliklarni shakllantirish, tuproqning unumdor qatlamini hamda potensial unumdor jinslarni ajratib olish, ularni tashish va qayta tiklanayotgan yerlarga qo'llash, shuningdek zarur infratuzilma, jumladan yo'llar barpo etish ishlari. Ushbu bosqich, qoida tariqasida, tog'-kon korxonalar yoki maxsus ixtisoslashtirilgan pudratchi tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi (Jo'raev A., Abdullaev N., 2016; O'zbekiston Respublikasi Ekologiya qo'mitasi milliy hisobotlari, 2015–2023).

Ikkinchi — biologik bosqichda yer unumdorligini tiklashga qaratilgan chora-tadbirlar bajariladi. Ushbu bosqich doirasida o'simlik va hayvonot dunyosini tiklash, barqaror faoliyat ko'rsatuvchi yuqori mahsuldor biogeosenozlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi agrotexnik va fitomeliorativ tadbirlar majmui amalga oshiriladi. Rekultivatsiyaning sanitariya-gigiena va qurilish yo'nalishidagi ishlar, odatda, shu bosqich bilan uyg'un holda olib boriladi (Davronova N.G., 2019; "Qizilqumda o'rmonzorlashtirish va fitomelioratsiya ishlari bo'yicha metodik qo'llanma", 2020).

Biologik melioratsiyani rejalashtirishda tog' jinslari uch toifaga ajratiladi: yaroqli, kam yaroqli va yaroqsiz jinslar. Rekultivatsiya obyektlarida qayd etilgan jinslar toifasidan kelib chiqqan holda, eng kam xarajat bilan eng yuqori samarani beradigan texnologiya va chora-tadbirlar belgilanadi. Yaroqli jinslar qatoriga unumdor va potensial unumdor jinslar kiradi. Fizik-mexanik xususiyatlari yoki kimyoviy tarkibi o'simliklarning o'sishi va rivojlanishini cheklaydigan jinslar biologik rekultivatsiya uchun kam yaroqli deb baholanadi. Biologik rekultivatsiya uchun yaroqsiz jinslar esa ikki kichik guruhga ajratiladi. Birinchisi fizik xususiyatlariga ko'ra emirilishi qiyin bo'lgan toshli, magmatik va metamorfik jinslar, ikkinchisi esa kimyoviy tarkibi nuqtayi nazaridan o'simliklar uchun keskin nomutanosib muhit hosil qiluvchi jinslar (Jo'raev A., Abdullaev N., 2016; Davronova N.G., 2019).

Rekultivatsiya qilingan yoki samaradorligi past yerlarga unumdor tuproq qatlamini olib tashlash, saqlash va qayta qo'llash bilan bog'liq xarajatlar yuqorida ta'kidlangan ish turlarining umumiy qiymatiga bog'liq bo'ladi. Shu bilan birga, unumdor tuproq qatlamini 1 gektar unumsiz yerga qo'llash bilan bog'liq sarf-xarajatlar respublikada qishloq xo'jaligidan tashqari ehtiyojlar uchun olib qo'yilgan yerlarning o'rniga 1 gektar yangi yerni o'zlashtirish uchun belgilangan me'yorlardan oshmasligi lozim (O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi, 1998; O'zbekiston Respublikasi Ekologiya qo'mitasi milliy hisobotlari, 2015–2023).

Buzilgan yerlarni tiklash, qoida tariqasida, asosiy ish jarayoni bilan parallel ravishda amalga oshiriladi, imkoniyat mavjud bo'lmagan hollarda esa ishlar yakunlangandan keyin bir yildan kechiktirmay bajarilishi shart. Rekultivatsiya usullarini tanlash hududdan oqilona va samarali foydalanish, iqtisodiy, estetik va sanitariya-gigiena talablariga mos keladigan uyg'un landshaftlarni shakllantirish, shuningdek atrof-muhitni muhofaza qilish hamda kelajak avlodlar manfaatlarini inobatga olish kabi ustuvor maqsadlarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Rekultivatsiya ishlarining hajmi va texnik bosqichga qo'yiladigan talablar buzilgan yerlarni tez va samarali ravishda foydalanishga qaytarish zaruratidan kelib chiqib belgilanadi.

Rekultivatsiyaning texnik bosqichi. Qishloq xo'jaligi maqsadlari, shu jumladan yaylov sifatida foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan yerlarni qayta tiklashda buzilgan yer maydonlarini relief xususiyatlari, hajmi va unumdor tuproq qatlamining yoki biologik rekultivatsiya uchun mos jinslarning mavjudligini hisobga olgan holda tanlash, maydonlarni maqbul qiymatlarga muvofiq rejalashtirish va yopiq tushkunliklarni bartaraf etish, shu bilan birga yer shaklini to'rtburchakka yaqinlashtirib, agrotexnik texnikadan samarali foydalanish uchun qulay sharoit yaratish, belgilangan parametrlarga ega bo'lgan rekultivatsiya qatlamini shakllantirish, zarurat tug'ilganda kapillyar uzuvchi yoki suv o'tkazmaydigan ekranlashtiruvchi qatlam qo'llash kabilarni amalga oshirish zarur.

Ekin maydonlari va ko'p yillik ko'chatlar barpo etishda unumdor tuproq va potensial unumdor jinslardan foydalanish unumdor qatlamni to'g'ridan-to'g'ri kimyoviy va fizik xususiyatlari jihatidan yaroqsiz jinslar ustiga joylashtirmaslik, har bir holatda yerni muhofaza qilish va mustahkamlash usullarini tanlashda jinslarning tarkibi, tabiiy-iqlim sharoiti va texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisobga olish talablariga rioya etgan holda amalga oshirilishi lozim.

Buzilgan yerlarni kimyoviy va (yoki) texnik jihatdan saqlash bo'yicha barcha chora-tadbirlar sanitariya-epidemiologiya xizmati organlari bilan kelishilgan holda amalga oshirilishi lozim. Atrof-muhitni muhofaza qilish va sanitariya-gigiena zonalaridagi yerlarni rekultivatsiya qilish jarayonida biologik rekultivatsiya uchun yaroqsiz





hisoblangan, shuningdek mineral xomashyoni qayta ishlash jarayonida zaharli reagentlar bilan ifloslangan sanoat chiqindixonalari hamda sho'rlangan tuproqlardan tashkil topgan gidravlik chiqindilar maydonlarida rekultivatsiya ishlarini amalga oshirish, ularda potensial unumdor jinslar yoki unumdor tuproq qatlamini shakllantirish, zaharli moddalarni o'z ichiga olgan chiqindi tindirgichlar, chiqindixonalar, kul omborlari va boshqa sanoat chiqindilarini sanitariya-gigiena talablari va me'yorlariga muvofiq holda saqlash, havoga chang tarqatish xavfi mavjud bo'lgan sanoat chiqindixonalarini texnik, biologik yoki kimyoviy usullar orqali barqaror holatga keltirish kabi vazifalar bajarilishi lozim (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya qo'mitasi milliy hisobotlari, 2015–2023).

Rekreasion yo'nalishdagi rekultivatsiya jarayonining texnik bosqichida buzilgan hududni kam miqdordagi qazish ishlari bilan, mavjud yoki shakllanishi kutilgan relef xususiyatlarini saqlagan holda rejalashtirish tavsiya etiladi. Ochiq usulda qazib olingan va yirik aholi punktlariga yaqin joylashgan yerlar sanoat va fuqarolik qurilishi uchun ehtiyot (rezerv) hudud sifatida ko'rib chiqilishi mumkin.

Buzilgan yoki buzilish ehtimoli yuqori bo'lgan yerlardan sanoat va fuqarolik qurilishi maqsadida foydalanishning maqsadga muvofiqligi hududlarni rejalashtirish va rivojlantirishning umumiy sxemalari, yerdan foydalanish va rekultivatsiyaning mintaqaviy rejalari, muhandislik-geologik tadqiqotlar natijalari hamda iqtisodiy hisob-kitoblar asosida aniqlanadi.

Rekultivatsiyaning texnik bosqichidagi eng mehnattalab jarayon rejalashtirish hisoblanadi. Ayrim hollarda ushbu ishlar umumiy xarajatlarning 80 foizigacha ini tashkil qilishi mumkin. Rejalashtirish qo'pol va nozik bosqichlarga ajratiladi. Uning asosiy maqsadi texnogen relefni keyingi maqsadli foydalanish uchun mos holatga keltirishdan iborat. Bu jarayonda mavjud chuqurliklar, o'pirilgan maydonlar va qulash zonalari to'ldiriladi, zarurat tug'ilganda yer usti suvlarini drenajlash, qulash xavfi bo'lgan uchastkalarni mustahkamlash kabi qo'shimcha chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Katta karerlar, kesimlar hamda tashqi va ichki chiqindixonalarining poydevor qismi keyingi foydalanish yo'nalishiga muvofiq profilanadi; yon bag'irlar etarlicha sustlashtiriladi va zarur hollarda mustahkamlanadi. Qayta tiklanayotgan yerlarda qishloq xo'jaligi maqsadlari uchun mos nishabliklar yaratiladi, o'rmonzorlashtirish ko'zda tutilgan hududlarda esa 3–5° qiyalikka yo'l qo'yiladi.

Meliorasiya profilini shakllantirish — bu sun'iy ravishda suvga chidamlilikni ta'minlaydigan himoya qatlamlarini rekultivatsiya qilinayotgan yuzaga bir tekis joylashtirishdan iborat. Rekultivatsiyani yakunlovchi rejalashtirish bosqichida yonbag'irlar yuzasiga unumdor tuproq qatlami beriladi, 5 sm dan ortiq mikro-chuqurliklar bartaraf etiladi, zarurat tug'ilganda tuproq qatlamini yumshatish ishlari amalga oshiriladi. Rejalashtirishning sifatsiz bajarilishi tuproq namligining notekis taqsimlanishi, yuza oqimining buzilishi, pasttekisliklarda suv to'planishiga olib kelib, qishloq xo'jaligida yerdan foydalanish samaradorligini pasaytiradi va qo'shimcha katta xarajat talab etadi. Noto'g'ri tekislangan maydonlarda 10–20 sm chuqurlikdagi mikro-depressiyalar hosildorlikni ikki barobargacha kamaytiradi. Shu bois qayta tiklanadigan maydonlar tosh, metall elementlar, cho'p-qoldiqlar va begona o'tlardan tozalanishi lozim. Rejalashtirish ishlarining sifati tuproqning namligi va mexanik tarkibiga bog'liq bo'lib, nam sharoitda bunday ishlar olib borilmasligi kerak.

Ichki va tashqi chiqindixonalarda rekultivatsiya paytida eng katta hajmda rejalashtirish ishlari bajariladi. Axlaxonalarning topografiyasi ularni shakllantirish usuliga bog'liq: buldozer usulidagi chiqindixonalar nisbatan tekis yuzaga ega bo'lib, keyingi rejalashtirishga kam mehnat talab qiladi. Transportsiz yoki transportli shakllanishdagi chiqindixonalar turli xil konus va tizmalardan iborat murakkab relefni hosil qiladi.

Axlaxonalar va karer yonbag'irlarini tekislash va terraslash ularning barqarorligini oshirish, eroziya xavfini kamaytirish va atrof-muhitga salbiy ta'sirlarni cheklash maqsadida amalga oshiriladi. Terrasalarning burchagi, kengligi va oraliq masofalari biologik rekultivatsiya talablaridan kelib chiqib belgilanadi. Buldozer, qirg'ich va draglaynlardan foydalanish yonbag'ir balandligi va jins xususiyatlariga qarab belgilanadi. Terrasalar 8–10 m oraliqda, 1,5–2° qiyalik bilan shakllantirilishi tavsiya etiladi (Jo'raev A., Abdullaev N., 2016).

Rekultivatsiyaning texnik bosqichi yakunida o'suvchan qatlam yaratish — ya'ni tuproqning kimyoviy va fizik xususiyatlarini yaxshilash, zaharli ta'sirlarni cheklash va qulay gidrogeologik sharoitni ta'minlash ishlari amalga oshiriladi.

Rekultivatsiyaning biologik bosqichi tuproq unumdorligini tiklash va unumdor substrat yaratishga qaratilgan biomeliorativ tadbirlardan boshlanadi. Qishloq xo'jaligi yo'nalishida tuproqni tiklash fitomeliorasiya usullari, o'g'itlash, ohaklash, gipslash va meliorant ekinlar yetishtirish orqali amalga oshiriladi. Biologik bosqich muddati tuproq va tabiiy sharoitlarga bog'liq bo'lib, obyektlar rekultivatsiyaga qabul qilinishidan oldin barqarorlik, eroziyadan himoya va muhandislik tadbirlarining to'liq bajarilganligi ta'minlangan bo'lishi shart (Davronova N.G., 2019; "Cho'llanishga qarshi kurash milliy dasturi", 2018).

Chiqindixonalar barqaror holatda bo'lishi, asosiy yog'ingarchilik ta'sirlari tugallangan bo'lishi, ichki axlaxonalarning tayyorlangan yuzasi esa karerga tutash hududlarda yer osti suvlari sathidan yuqori, kamida 1–2 m masofada joylashishi zarur. Yuzani rejalashtirish o'rmon ekish va qishloq xo'jaligi ishlarini mexanizatsiya asosida amalga oshirish imkonini berishi lozim. Chiqindixonalar yuzasi qishloq xo'jaligi yo'nalishida rekultivatsiya qilishda unumdor tuproq qatlami, o'rmon yo'nalishida esa tuproq hosil qiluvchi jinslar bilan qoplanadi. Shu



bilan birga, eroziyaga qarshi, botqoqlanish va toshqinlarni oldini olishga qaratilgan barcha muhandislik chora-tadbirlari to'liq bajarilgan bo'lishi shart.

Biologik rekultivatsiya uslublari texnik bosqich sifat darajasi, tog' jinslarining ekin yetishtirishga mosligi va tabiiy-agroklimat sharoitiga bog'liq. Tuproq unumdorligini to'liq tiklash ko'p yillik jarayon bo'lib, ilmiy asoslangan ekish tizimi va ekin almashinuvi gumus zaxirasi hamda ozuqa moddalarining ko'payishini ta'minlaydi.

Biologik bosqich texnik bosqichdan keyin amalga oshiriladi va rekultivatsiya jarayonining asosiy tarkibiy qismidir. Uning davomiyligi tabiiy-geologik sharoit, tuproq tarkibi va ozuqa moddalari bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liq. Ozuqa kam, qisman zaharli yoki sho'rlangan yerlarda maxsus meliorativ rivojlanish davri belgilanib, bu bosqichda ohaklash, gipslash, yuvish ishlari, organik va mineral o'g'itlar qo'llash, meliorant ekinlar — ayniqsa dukkaklilarni yetishtirish amalga oshiriladi.

Keyinchalik fermer xo'jaliklari ixtisoslashuviga mos almashlab ekish tizimini joriy etish tavsiya etiladi, shu bilan birga tuproqni yaxshilaydigan ekinlar ma'lum muddat saqlab qolinadi. Vaqt o'tishi bilan tuproq tabiiy shakllanishi barqarorlashgan sari ularning ulushini kamaytirish mumkin.

So'nggi yillarda ekologik xavfsiz konchilik texnologiyalarining joriy etilishi rekultivatsiya jarayonini yanada samarali qilish imkonini berdi. Ularni loyihalashtirish bosqichidanoq mahalliy tabiiy va texnologik sharoitlarga moslashtirish va amaliyotda qo'llash ekotizimlarni tiklash samaradorligini sezilarli oshiradi (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya qo'mitasi milliy hisobotlari, 2015–2023).

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan ilmiy tahlil buzilgan yerlarni rekultivatsiya qilish jarayoni ekologik xavfsizlikni ta'minlash, yer resurslaridan oqilona foydalanish va hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi. Rekultivatsiya texnik va biologik bosqichlarning uzviy bog'liqligiga asoslangan murakkab tizim bo'lib, uning samaradorligi har bir bosqichda qo'llaniladigan texnologiyalar, rejalashtirish sifati va hududning tabiiy-iqlim xususiyatlarini hisobga olish darajasi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, texnik bosqichda relefni to'g'ri shakllantirish, eroziya va suv to'planish xavfini bartaraf etish hamda biologik rekultivatsiya uchun qulay asos yaratish keyingi bosqichlarning muvaffaqiyatini belgilovchi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Biologik bosqich esa tuproq unumdorligini tiklash, barqaror biogeosenezlarni shakllantirish va yerlarni uzoq muddatli xo'jalik aylanishiga qaytarishning asosiy mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa sho'rlangan, kam ozuqali yoki qisman zaharlangan hududlarda ilmiy asoslangan fitomeliorativ va biomeliorativ tadbirlarning qo'llanilishi rekultivatsiya jarayonining samaradorligini sezilarli oshiradi.

O'zbekiston sharoitida rekultivatsiya tadbirlarini amalga oshirishda cho'l va yarim cho'l hududlarining tabiiy cheklovlari, suv resurslarining tanqisligi hamda iqtisodiy omillarni hisobga olish zarur. Shu nuqtayi nazardan, minimal xarajat bilan maksimal ekologik va xo'jalik samaradorlikka erishishga yo'naltirilgan kompleks yondashuv rekultivatsiya siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lishi lozim. Rekultivatsiya jarayonini loyihalash bosqichidanoq zamonaviy ekologik xavfsiz texnologiyalarni joriy etish va hududiy xususiyatlarga moslashtirish yer resurslarini tiklash samaradorligini oshiradi.

Umuman olganda, buzilgan yerlarni rekultivatsiya qilish faqat texnik vazifa emas, balki ekologik barqarorlik, ijtimoiy mas'uliyat va kelajak avlodlar manfaatlarini uyg'unlashtiruvchi strategik jarayon sifatida qaralishi lozim. Ilmiy asoslangan va tizimli yondashuv asosida amalga oshirilgan rekultivatsiya ishlari yer resurslarining uzoq muddatli unumdorligini ta'minlash va atrof-muhitni muhofaza qilishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 09.12.1992 yildagi "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi 754-XII-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-107115>
2. O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi. <https://lex.uz/docs/-152653>
3. "O'zbekiston Respublikasining 16.04.2018 yildagi "O'rmon to'g'risida"gi O'RQ-475-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-3683529>
4. O'zbekiston Respublikasining 03.12.2004 yildagi "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi 710-II-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-415135>
5. Ўзбекистон Республикаси Экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш қўмитаси миллий ҳисоботлари. — Тошкент, 2015–2023.
6. Жўраев А., Абдуллаев Н. Ер ресурсларини муҳофаза қилиш ва рекультивацiя асослари. — Тошкент: Фан, 2016.
7. Давронова Н.Г. Ўзбекистоннинг қурғоқчил ҳудудларида ер деградацияси ва унинг олдини олиш масалалари. — Тошкент: Фан, 2019.
8. "Чўлланишга қарши кураш миллий дастури". — Тошкент, 2018.
9. "Қизилқумда ўрмонзорлаштириш ва фитомелиорация ишлари бўйича методик қўлланма". — Тошкент: Экология қўмитаси нашри, 2020.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2025. № 12

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>